



OILAVIY ZO'RAVONLIK:AYOLLAR HIMOYASIGA QARATILGAN QONUNCHILIK VA AMALIYOT

G‘ulomova Vasila Xasanboy qizi

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs
talabasi Tel:+998(50)030-66-40
Email:vasilagulamova@icloud.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida ayollarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonlik holatlarini, ayniqsa oilaviy zo‘ravonlik masalasini chuqur tahlil qiladi. So‘nggi yillarda qonunchilik bazasi mustahkamlanayotganiga qaramasdan, ayollar hanuzgacha jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy tazyiqqa uchramoqda. Oila doirasidagi zo‘ravonlik ko‘pincha yashirin kechadi, ko‘plab jabrlanuvchilar esa jamiyatdagi stereotiplar, huquqiy savodsizlik yoki qo‘rquv tufayli bu holatlarni rasmiy idoralarga bildirmaydi. Bu esa yurtimizda ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning kuchayishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada shu kabi zo‘ravonliklarni kamaytirish va oldini olish yuzasidan takliflar beriladi.*

Kalit so‘z: zo‘ravonlik, jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy tazyiq, stereotiplar

ДОМАШНЕЕ НАСИЛИЕ: ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО И ПРАКТИКА, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ЗАЩИТУ ЖЕНЩИН

Аннотация: В данной статье подробно анализируются случаи насилия в отношении женщин в Республике Узбекистан, особенно проблема домашнего насилия. Несмотря на усиление законодательной базы в последние годы, женщины по-прежнему подвергаются физическому, психологическому, экономическому и сексуальному насилию. Домашнее насилие часто остается скрытым, и многие жертвы не сообщают о таких случаях в официальные органы из-за социальных стереотипов, правовой неграмотности или страха. Это способствует росту уровня насилия в отношении женщин в нашей стране. В статье представлены предложения, направленные на снижение и предотвращение таких форм насилия.

Ключевые слова: насилие, психологический, экономический и сексуальный прессинг, стереотипы





DOMESTIC VIOLENCE: LEGISLATION AND PRACTICES AIMED AT PROTECTING WOMEN

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of incidents of violence against women in the Republic of Uzbekistan, particularly focusing on domestic violence. Despite the strengthening of the legal framework in recent years, women continue to face physical, psychological, economic, and sexual abuse. Domestic violence often remains concealed, with many victims refraining from reporting such incidents to official authorities due to social stereotypes, legal illiteracy, or fear. This contributes to the increasing rate of violence against women in our country. The article presents proposals aimed at reducing and preventing such forms of violence.

Key words: violence, physical, psychological, economic and sexual pressure, stereotypes.

Kirish.

Ayollar jamiyatning ajralmas va muhum qismi bo‘lib, ularning faolligi va ishtiroki jamiyat taraqqiyoti va farovonligida muhum ro‘l o‘ynaydi. O‘zbekistonda ayollarga nisbatan qilinayotgan taziyqlar va kamsitishlar kundan kunga ortib borishi, ularning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy huquqlarining buzulishi, bugungi kunda ayollarning huquq va manfaatlarini ta’minalash, ularni turli xildagi zo‘ravonliklardan himoya qilish uchun O‘zbekistonda bir qator islohotlar amalga oshirilishiga turtki bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, davlat hokimiyati boshqaruv organlari tomonidan ayollarning zo‘ravonliklardan himoya qilinishiga doir bir qator qonunchilik hujjatlari imzolandi.

So‘nggi yillarda ayollarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik holatlari jamiyatda ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Bu muammo nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy va ma’naviy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Ayollarni himoya qilishga doir qonunlar mavjud bo‘lsada, ularning amaldagi ish faoliyati va bu faoliyatga doir amalga oshirilayotgan islohotlar e’tiborga loyiq. **Oilaviy zo‘ravonlik** – ayollarga o‘z oila a’zolari tomonidan amalga oshirilishi yoki oshirilayotgan ruhiy, jismoniy taziyqidir. Ayollarga nisbatan bu zo‘ravonlikning turli xildagi ko‘rinishlarini uchratish mumkin, ammo ularning aksariyati yashirin tarzda namoyon bo‘ladi. Ya’ni ayol o‘z oilasida, eri, qaynonasi yoki boshqa shaxslar tomonidan zo‘ravonlikka uchrab kelayotgani, buni esa jamiyatdagi turli xildagi stereotiplar tufayli sir saqlab kelayotgan bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda ayollarning o‘z oila a’zolari tomonidan shavqatsiz tarzda kaltaklangani yoki oxir oqibatta o‘limga yuz tutganini ifodalovchi bir qancha yangiliklarni ko‘rishimiz mumkin. Ayollarning bunday





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



kamsitish, zo'ravonliklarning oldini oluvchi huquqlari va bunga doir qonunchilik hujjatlari bo'lishiga qaramasdan bunday voqealarning soni yildan yilga ortib bormoqda. Bunday voqealar nafaqat O'zbekistonda, balki dunyoning boshqa davlatlarida ham katta muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda AQSHning aynan shu kabi muammolar bilan shug'ullanayotgani va bu muammolarni yechish uchun bir qator ishlar amalga oshirilayotgani yaqqol misol bo'la oladi. Ayollarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik – bu muammo qadimgi otalik g'oyalari ta'sirida shakllangan bo'lib, bu g'oyalarda ayollarning erkaklardan pastroq ekanligi diniy va qonunchilik matnlarida mustahkamlangan. Asrlar davomida institutlashtirilgan gender tengsizligi ayollarga nisbatan zo'ravonlikni qo'llab-quvvatlagan va ularning mustaqilligini cheklagan. So'nggi yuz yillikda AQSh ushbu ijtimoiy muammoni hal qilishga uringan. 1920-yilda 18-o'zgartirish qabul qilinib, gender tengligiga ilk qadam qo'yilgan. 1960-yillarda feministik harakat kuchaygach, ish joylarida jinsiy zo'ravonlik va oilaviy zo'ravonlikka qarshi qonunlar qabul qilindi. Shunga qaramay, ayollar hanuzgacha oilaviy zo'ravonlikdan aziyat chekishda davom etmoqda. AQShda har besh ayoldan biri va har o'n to'rt erkakdan biri hayoti davomida yaqin sherigi tomonidan zo'ravonlikka uchraganini bildirgan. Har doimgidek, erkaklar ham bu muammodan xoli emas, lekin u ayollar orasida ancha keng tarqalgan. Ayrim hollarda davlat yordam dasturlari mavjud bo'lsa-da, ular yetarli yoki samarali emas. 1994-yildan 2012-yilgacha AQShda oilaviy zo'ravonlik darajasi 67%ga kamayganiga qaramay, bu hal qilinmagan jiddiy muammodir. Ma'lumotlarning cheklanganligi muammoni to'liq baholashni qiyinlashtiradi. Masalan, AQShda zo'ravonlikka uchragan ayollarning atigi 40 foizi yordam so'rab murojaat qiladi. Bu esa mavjud statistikani haqiqatdan ancha past ko'rsatadi. Bu esa oilaviy zo'ravonlik nafaqat O'zbekistonda balki dunyoning eng rivojlangan davlatlarida ham yashirin tarzda amalga oshirilmoqda. Ayollar esa o'z huquqlarini bilmasligi, ulardan to'g'ri vaqtida yetarlicha foydalana olmasligi bugungi kunda aynan shunday muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda 2023-yilning dastlabki yetti oyida ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari bo'yicha 21 871 ta himoya orderi berilgan. Ularning 84,7 foizi oilaviy muhitda sodir bo'lgan.⁴⁸ Shuningdek, 5495 holatda ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilanib, ayollarning huquqlari tiklangan. Shuningdek O'zbekistonda ayollarning huquqlarini himoyasini oshiruvchi bir qancha normativ huquqiy hujjatlar e'lon qilingan. "Xotin-qizlarni tazyiq va

⁴⁸ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/09/05/order/>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”⁴⁹gi Qonun Bu qonun 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan va 2020-yil 4-yanvardan kuchga kirgan. Qonun zo‘ravonlik qurbanlari bo‘lgan ayollarni himoya qilish, ularga yordam ko‘rsatish tartiblarini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi KonstitutsiyasiKonstitutsiyaning 58-moddasida ⁵⁰ayollar va erkaklarning teng huquqligi belgilangan: “Davlat erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi.” Konstitutsiyamizning ushbu muddasi aynan ayollarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Ya’ni ayollar ham ularga beriladigan huquqlardan erkaklarnikidek teng foydalana oladi,ular ham ularga qilinayotgan zo‘ravonliklardan o‘zlarini himoya qila olishadi.Aynan shu qonunlar ayollarning har qanday vaziyatda erkaklar bilan bir xil darajada himoyalanganligini ko‘rsatadi.

Ayollarning bunday vaziyatdan himoya qilinishini ta'minlash maqsadida yurtimizda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”⁵¹gi Qonun (2019-yil)Bu qonun ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllarini aniqlash, oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy asoslarni belgilaydi. Qonunda himoya orderi berish tartibi, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakolatlari, shuningdek, jabrlanganlarga psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish mexanizmlari belgilangan. Jinoyat kodeksiga kiritilgan 126-1-modda ⁵²(2023-yil) Bu modda oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Unga ko‘ra, zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar ma’muriy jazolardan tortib, ozodlikdan mahrum qilishgacha bo‘lgan jazolarga tortilishi mumkin. Yurtimizda shu kabi oilaviy zo‘ravonlik va ayollar huquqlarini kamsitilishi yuzasidan har yili qator islohotlar olib boriladi,ammo ayollarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatining yetarli bo‘lmaganligi,ularning fikrini to‘ldirib boradigan jamiyatdagi notog‘ri steryotiplarning mavjudligi tufayli bu qonunlarning aksariyati samarasiz bo‘lib qolmoqda.

Agar yurtimizda ayollarning huquqiy savodxonligini oshiruvchi tadbirlar,muloqotlar tashkil qilinib,ularning huquqlari qanchalik yuqori ekanligi

⁴⁹ <https://lex.uz/docs/4513274>

⁵⁰ <https://lex.uz/docs/6007663> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

⁵¹ https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/35855/22925/37165?utm_source=chatgpt.com Ayollar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida

⁵² <https://lex.uz/mact/-111453> Ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qonun



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



ta'kidlansa, ayollarning jamiyatdagi o'rni oshishi va oilaviy zo'ravonliklar yetarli darajada kamayishi mumkin. Zero, qachonki ayol o'zini jamiyat uchun kerakli va muhum deb hisoblasa, u atrofidagilarga ham aynan shu g'oyalarni ko'rsatib, jamiyat uchun foyda keltirishi mumkin. Shuni unutmasligimiz kerakki, aynan sog'lom onalardan sog'lom avlod dunyoga keladi. Sog'lom deganda nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham ayollar sog'lom fikrlashi kerak.

Xulosa: Oilaviy zo'ravonlik – bu nafaqat shaxsiy, balki jamiyat uchun ham muhim ijtimoiy muammo bo'lib, ayollar huquqlarining buzilishiga olib keladi. Asrlar davomida shakllangan noto'g'ri gender stereotiplari ayollarning teng huquqli jamiyatda erkin yashashiga to'sqinlik qilgan. Biroq, so'nggi yillarda bu muammoni bartaraf etish yo'lida jiddiy choralar ko'rilmoxda. O'zbekistonda ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan qonunlar qabul qilinib, himoya orderlari tizimi, reabilitatsiya markazlari va huquqiy yordam mexanizmlari joriy etildi. Shu bilan birga, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, gender tengligini targ'ib qilish ham muhim ahamiyatga ega. Muammoni to'liq bartaraf etish uchun qonunchilik islohotlari bilan bir qatorda, jamiyatda ayollarga nisbatan hurmat, tenglik va adolat tamoyillarini mustahkamlash zarur. Shundagina ayollar o'z hayoti va huquqlarini himoya qila oladigan, zo'ravoniksiz jamiyatda yashash imkoniga ega bo'ladi.

References:

1. Gazeta.uz. (2023). 21 871 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/09/05/order>
2. Lex.uz. (2019). O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/acts/-4494709>
3. Lex.uz. (2023). Vazirlar Mahkamasining 434-sonli qarori (31.08.2023). <https://lex.uz/docs/-4676892>
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2022). Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha konferensiya materiallari. https://api.moiti.uz/media/book/Конференция_9-dekabr_2022.pdf

